

“TASDIQLAYMAN”



**“Olmaliq KMK” AJda
2025-yil (1-yanvar – 31-dekabr bo‘lgan davr mobaynida) davomida
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

I. “Olmaliq KMK” AJ Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

Kombinat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari amalga oshirilishi ta‘minlangan.

Jumladan, “Olmaliq KMK” AJ Markaziy apparati bo‘linmalari (38ta bo‘linmalar) hamda barcha 46ta tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirish ta‘minlangan.

Chunonchi, “Olmaliq KMK” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimi (KQKMT) to‘liq joriy etish maqsadida **Kombinatning umumiy soni - 19 ta ichki lokal hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ markaziy apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Komplayens tizimini joriy etishga oid ichki normativ hujjatlar ro‘yxati:

(Izoh: №1 Ichki normativ hujjatlarning ro‘yxati quyida keltirilmoqda (2025-yilning 02-oktabr holatiga tuzilgan.

Izoh: №2 Ro‘yxatda ko‘rsatilgan hujjatlar matni bilan, “Olmaliq KMK” AJning rasmiy veb sahifasidagi quyidagi havolalar yordamida Davlat tili, Rus tili va Ingliz tilidagi matnlari bilan bemalol tanishish mumkin):

Davlat (lotin alifbosida) tilida: <https://agmk.uz/oz/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

Rus tilida: <https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

Ingliz tilida: <https://agmk.uz/en/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

1. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Komplayens xizmati to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-01-2022);

2. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Komplayens xizmati boshlig‘ining Lavozim yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-02-2022);

3. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Korrupsiyaga qarshi Siyosati” (S 00193950-90-03-2022);

4. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Odob-axloq Kodeksi” (K 00193950-90-04-2022);

5. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-05-2022);

6. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ markaziy apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy tartibda aniqlash, baholash va ularni kamaytirish Uslubiyoti" (U 00193950-90-06-2022);

7. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning kontragentlarini (ishbilarmon hamkorlarini, investorlari, sheriklarini) tekshirish tartibi bo'yicha Yo'riqnoma" (Y 00193950-90-07-2022);

8. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ xodimlarining odob-axloq qoidalari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma" (Y 00193950-90-08-2022);

9. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJda tashkil qilingan aloqa kanallari orqali tizimdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti" (R 00193950-90-09-2022);

10. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish tartibi bo'yicha Yo'riqnoma" (Y 00193950-90-10-2022);

11. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar va xizmatdagi odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Reglament" (R 00193950-90-11-2022);

12. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy qilingan tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti" (R 00193950-90-12-2022);

13. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish tartibi to'g'risidagi Nizom" (N 00193950-90-13-2022);

14. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizom" (N 00193950-90-14-2022);

15. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJda monopoliyaga qarshi Komplayens tizimini joriy qilish va uning ishlash tartibi to'g'risidagi Nizom" (N 00193950-90-15-2022);

16. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi Nizom" (N 00193950-90-16-2022);

17. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro, mahalliy va boshqa tadbirlar munosabati bilan olinishi va berilishi mumkin bo'lgan sovg'alar qiymati (soni), shuningdek ularni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi Nizom".

Bundan tashqari, "Olmaliq KMK" AJning Kuzatuv kengashi tomonidan 2022-yil 5-iyuldagi 17-son Majlis Bayoni bilan:

1. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ Kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi to'g'risidagi Nizom (N 00193950-90-01-2022). (asos: 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmonning 14-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan).

2. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning Yetkazib beruvchilarini (ta'minotchilarini/pudratchilarini) mas'uliyatli tanlash uchun ta'minot (pudrat) zanjirlarini lozim darajada tekshirish bo'yicha Siyosati" (S 00193950-90-02-2022). (asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Olmaliq shahriga tashrifi 2021-yil 29-dekabrda №02-RA 1-20838-son topshiriq bilan tasdiqlangan 22-dekabrda 56-son bayonning 10.2.-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan).

“Olmaliq KMK”AJda joriy qilingan tizimni xalqaro aksilkorrupsiyaviy (ISO 37001) standartlariga muvoqlashtirish ishlarining xolati.

2025-yilning May-Iyun oylarida, “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi, tashqi auditdan o‘tkazildi.

O‘tkazilgan tashqi audit yakuniga ko‘ra, Kombinatda joriy etilgan aksilkorrupsiyaviy boshqaruv tizimi, ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti **Xalqaro standarti, shuningdek O‘zDSt ISO 37001:2019/ISO 37001:2016 Milliy standartlari talablariga muvofiq deb e’tirof etildi.**

2025 yilning 30-iyun sanasida esa, har ikkala Sertifikatlar “Olmaliq KMK”AJ Boshqaruvi raisining qo‘liga tantanali ravishda topshirildi.

Tasdiqlovchi hujjatlar bilan quyidagi linklar orqali tanishish mumkin:
https://t.me/ao_agmk/35936, shuningdek, Kombinatning rasmiy veb.saxifasida <https://agmk.uz/oz/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-okmk-faoliyati-ijobiy-baholandi>

Ta’kidlash joizki, “Olmaliq KMK”AJning 2025-yil 21-iyuldagi 07-25/61-01723-son xati, shuningdek, 2025-yil 23-dekabrda 12-25/61-03033-son xatlari bilan, muvofiqlikni tasdiqlovchi Sertifikatlar hamda ushbu Sertifikatlarning haqiqiyligini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ISO 37001 xalqaro standartini joriy qilinishi hamda “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi” sertifikatini xarid qilinishi bo‘yicha tegishli hujjatlarning nusxalarini (jumladan, tender e’loni va bayoni, sertifikat taqdim qilgan tashkilot bilan tuzilgan shartnoma, sertifikat nusxasi va boshqa aloqador hujjatlarni) va boshqa ma’lumotlar **Agentlikka takroran taqdim etilgan.**

2024-2025 yillarda belgilangan ustuvor vazifalar hamda maqsadlar ijrosi holati.

“Olmaliq KMK”AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yo‘nalishida 2024 - 2025-yillar uchun belgilangan **“Maqsad va vazifalar”i** ishlab chiqildi hamda Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari S.V.Larionov tomonidan 2024-yilning 8-oktyabr sanasida tasdiqlandi.

Ushbu bilan “Maqsad va vazifalar”da belgilangan topshiriqlar ijrosi bo‘yicha ma’lumotlar kiritilmoqda.

1. Kombinat ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyani tubdan yo‘qotishga erishish bo‘yicha:

“Olmaliq KMK”AJ Komplayens xizmati tomonidan Kombinat IT departamenti mutaxassislari bilan hamkorlikda Kombinat va tarkibiy korxonalardagi **barcha 100% xodimlar** tomonidan Manfaatlar to‘qnashuviga oid deklaratsiyalarni to‘ldirish, xabarnoma to‘ldirish hamda reyestr yuritish ishlarini raqamlashtirish maqsadida, Kombinatning rasmiy **Telegram messendjerida alohida MTbot platformasi Test rejimida ishga tushirildi. Ayni paytda, ushbu “MTbot” foydalanuvchilar tomonidan bildirilgan taklif va etirozlar asosida qayta takomillashtirilmoqda.**

2. Kombinat rahbar xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish ishlarining holati:

Kombinat markaziy apparati bolinmalari hamda tarkibiy korxonalarining rahbar (boshqaruv) hamda injener-texnik toifaga mansub xodimlari uchun Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ichki normativ hujjatlarining mazmun-mohiyatini

tushuntirish va o'qitish ishlari tashkil qilishga oid "Olmaliq KMK" AJ Boshqaruvi raisining 2025-yil 25-martdagi 00387-son mahsus buyrug'i qabul qilindi.

"Olmaliq KMK" AJning Rahbar (boshqaruv) hamda injener-texnik toifaga mansub xodimlarning eng kamida 10%ni (tahminan – 3800 nafardan ziyod xodimlarni) o'qitish hamda egallagan bilimlarini TEST sinovlaridan o'tkazish ishlari Buyruq bilan tasdiqlangan Grafikka asosan tashkil qilindi.

3. Kombinat faoliyatida korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishlariga nisbatan mutlaqo toqatsizlik (murosasiz) munosabatni shakllantirish yo'nalishida:

Kombinat markaziy apparati hamda tarkibiy korxonalarga tegishli bino va inshootlarda joylashtirish uchun **2 xil turdagi** aksilkorrupsiyasiyaviy targ'ibot va tashviqot materiallari ishlab chiqildi hamda nashr/chop etilib "Olmaliq KMK" AJ **Markaziy (ijro) apparati binosida hamda tarkibiy korxonalarda eng gavjum joylarda joylashtirildi.**

Bundan tashqari, aksilkorrupsiyasiyaviy mavzudagi targ'ibot va tashviqot materiallari Kombinatga tegishli "Metallurg" xodimlar yotoqonasining barcha qavatlariga eng gavjum va korinarli joylarga jami 28ta dona yirik formatdagi mavzuga oid bannerlar gavjum va korinarli nuqtalarga joylashtirilishi ta'minlandi.

4. Kombinat faoliyatida, barcha soha va yo'nalishlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning ustuvorligini e'tirof etish hamda bunday chora-tadbirlarni Kombinat tizimida izchil joriy etish bo'yicha:

2024 yil yakuni bilan "Olmaliq KMK" AJning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **PQ-81** Qarori asosida "Samaradorlikni reyting baxolash" natijalari bo'yicha reytingdagi o'rnini keskin yaxshilashga erishildi va **85 ball to'plangan hamda "Yaxshi" natija qayd etgan tashkilotlar guruhiga otishga erishildi.**

5. Kombinat tizimida korrupsiyasiyaviy huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, korrupsiyaga olib keluvchi sabablar, shart-sharoitlar va omillarni bartaraf etish, korrupsiyasiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini hech bir istisnolarsiz ta'minlash yo'nalishida:

2024 yil yakuni bilan "Olmaliq KMK" AJ yagona aksiyadorining 2024 yil 1-apreldagi 1/2024 - sonli Qarori bilan tasdiqlangan Ustavi asosida korrupsiyasiyaviy xavf-xatarlarni yalpi baholashdan o'tkazildi, baholash natijasiga ko'ra quyidagi hujjatlar ishlab chiqilgan va 2025 yil 2-may kuni "Olmaliq KMK" AJ Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan:

1. Korrupsiyasiyaviy xavf-xatarlar **xaritasi;**
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **dastur;**
3. Korrupsiyasiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan **lavozimlar ro'yxati.**

Korrupsiyasiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qaroriga asosan "Olmaliq KMK" AJning Ustavida belgilangan barcha funktsiya va vazifalar korrupsiyasiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha dastlabki baholashdan **o'tkazilgan.**

Davlat tashkilotlari o'z faoliyatida korrupsiyasiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash ishlarini O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (2022-yil

31-avgust, 2-son) va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining (2022-yil 31-avgust, 5-son) qarori bilan tasdiqlangan va **3383-son** bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash" **Uslubiyoti** asosida "**Olmalik KMK**"AJning 2024-yil 1-aprelda yangi tahrirda tasdiqlangan Ustavida belgilangan barcha jami – 57 dona funksiya va vazifalar, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyillik darajasi baholashdan o'tkazildi.

Baholash ishlari yakuniga ko'ra, Kombinat Ustavida belgilangan umumiy soni 57ta funksiya va vazifalardan (vakolatlardan) iborat bo'lib, shundan:

- 3 tasi (5,26%) – Yuqori;
- 16 tasi (28,03%) – O'rta;
- 38 tasi (66,67%) – Past. deb e'tirof etildi.

Funksiya va vazifalar (vakolatlarning) korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyillik darajasini baholash O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2022-yil 31-avgust sanasida ro'yxatdan o'tkazilgan **3383-son Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshirildi.**

Baholashdan o'tkazilgan barcha funksiya va vazifalarning (vakolatlarning) jarayonlar ustunidagi tavsiflari batafsil yoritildi.

Tegishli ustunda tartib taomillarning (normativ-huquqiy hujjatlar) rekvizitlari batafsil ko'rsatib o'tildi. Aniqlangan xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari ustunida har bir funksiyada unda aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasidan kelib chiqqan holda, xavflarni bartaraf etish bo'yicha individual chora-tadbirlar ishlab chiqildi va ularning ijrochilari va muddatlari aniq belgilab qo'yildi.

Baholash ishlari yakuni bilan, "**Olmalik KMK**"AJning Korrupsiyaviy **xavf-xatarlar Xaritasi** shakllantirildi;

Xarita asosida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha **Dastur** ishlab chiqildi va Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyilligi yuqori va o'rta deb baholangan **Lavozimlar ro'yxati** ham shakllantirildi.

Barcha hujjatlar o'rnatilgan tartibga muvofiq, <https://e-anticor.uz/admin/organization/evaluations> elektron Platformasiga joylashtirildi.

Bundan tashqari, **E-anticor Platformasi** orqali Agentlikka 2025-yilning 4-yanvar holatiga **Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar ro'yxati** ham joylashtirildi.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.

2025-yil davomida (1-yandardan – 31-dekabrgacha bo'lgan davr mobaynida) Kombinatdagi barcha departamentlar, boshqarmalar, xizmatlar, bo'limlar, sektorlar, loyiha ofislari, kotibiyatlar, byurolar va boshqalar) hamda tarkibiy korxonalar, zavod, fabrika, sex, kon va ruda boshqarmalari, direksiya, uchastka, laboratoriya va boshqalar) kesimida, barcha boshqaruv xodimlari, rahbar xodimlar, injener-texnik xodimlar (Qonunning 3-moddasi, ikkinchi xatboshisi asosida - <https://lex.uz/docs/6952745>) tomonidan Kombinatdagi barcha - **3925 nafar rahbar (boshqaruv) toifasiga mansub xodimlar tomonidan Manfaatlar to'qnashuviga oid deklaratsiyalar 100% (yuz foyiz) to'ldirilishi ta'minlandi.**

“Olmaliq KMK”AJ Boshqaruvining 2022-yil 31 oktyabrda 001258-son Buyrug'i bilan “Olmaliq KMK”AJda Manfaatlarga to'qnashuvini boshqarish to'g'risida”gi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur ichki normativ hujjat bilan Kombinat markaziy apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda manfaatlarga to'qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va bartaraf etish tartibi, shuningdek manfaatlarga to'qnashuvini deklaratsiya qilish qoidalari batafsil belgilangan.

Kombinat markaziy apparati bo'linmalari hamda tarkibiy korxonalarda manfaatlarga to'qnashuvi holatlari kelib chiqishining oldini olish maqsadida, quyidagi holatlarda xodimlar tomonidan deklaratsiyalar taqdim etish tartibi joriy qilingan:

Chunonchi,

- vakant bo'lgan bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilish bosqichida;
- barcha xodimlar tomonidan yillik deklaratsiyalarni to'ldirish;
- real yoki potensial manfaatlarga to'qnashuvi yuzaga kelganlik holatlari fakti bo'yicha habarnoma hamda ehtimoliy MT holatlari bo'yicha deklaratsiyalarni to'ldirish ishlari.

Ma'lumki, Mehnat Kodeksining 121-moddasiga muvofiq, “O'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanadi”.

Biroq, ushbu moddaning ikkinchi qismiga ko'ra, umumiy qoidadan istisnolar O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi mumkinligi ko'rsatilgan.**

Chunonchi, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabrda 758-son qarori (<https://lex.uz/ru/docs/7220862>) bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning jami - 17ta soha, tarmoq va yo'nalishlarida, Qarindoshlarning birga ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalardan istisnolarga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan davlat tashkilotlari **xodimlarining Ro'yxati** (keyingi o'rinlarda matnda – **Istisnolar Ro'yxati deb yuritiladi**) tasdiqlangan.

Ayni huquqiy asosga ko'ra hamda “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunning 20-moddasiga asosan, “Olmaliq KMK”AJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon va metallurgiya sanoati vazirligi bilan hamkorlikda **“tashabbus tartibida”** Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-noyabrda 758-son qarori bilan tasdiqlangan **Istisnolar ro'yxatiga qo'shimcha kiritish haqida tegishli Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqildi** (<https://lex.uz/ru/docs/7220862>).

Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjat loyihasi Project.uz platformasi orqali barcha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan o'rnatilgan tartibda kelishildi, shuningdek loyiha yuzasidan Adliya vazirligining loyihani qabul qilishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi huquqiy xulosasi olindi.

Ta'kidlash joizki, ushbu Qaror ta'sir doirasi bilan Kombinatning faqatgina ishchi va xodimlar toifasini (yani, Kombinat jami xodimlarining taxminan 70-75 foizini) istisnolar bilan qamrab oladi holos.

Yani, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi №VMQ-400-son Qarori bilan kiritilgan qo'shimchalarga muvofiq, Kombinatning Boshqaruv a'zolari, rahbariyat hamda injener-texnik xodimlar toifasiga kiritilgan boshqa mansabdor xodimlarga nisbatan manfaatlarga to'qnashuvi hamda mehnat qonunchiligida belgilangan qarindoshlarning

birga ishlashiga oid qoidalar, cheklov va ta'qiqlar to'liq hajmda qo'llanishda davom etadi (<https://lex.uz/ru/docs/7606183>).

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi №VMQ-400-son Qarorining qabul qilinishi quyidagi muammolarni hal etishda huquqiy asos vazifasini o'taydi:
Chunonchi,

- "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun ijrosini samarali tashkil etishda **"tog'-kon va metallurgiya sanoati korxonalari" ishchi va xodimlari**, shuningdek sohadagi yuqori malakali mutaxassislarining huquq va manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashga;

- "tog'-kon va metallurgiya sanoati" korxonalarining yuqori malakali ishchi va xodimlar hamda mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida va to'liq hajmda qoplashga;

- "tog'-kon va metallurgiya sanoati korxonalari"da xodimlar qo'nimsizligining oldini olishga;

- "tog'-kon va metallurgiya sanoati korxonalari"dagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatni barqaror saqlashga;

- ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini muntazam oshirish va barqaror saqlashga;

- Davlat hamda Hukumat Rahbarining bevosita ko'magi va nazorati ostida amalga oshirilayotgan strategik ahamiyatga ega bo'lgan, yirik investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Tashkilot shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalar "Olmaliq KMK" AJning 2025 yil davomida (1-yanvardan – 31-dekabr gacha) imzolangan barcha **kontraktlarga kiritish 100%ga ta'minlangan.**

Kombinatning barcha xaridlari hamda shartnomalari markazlashgan tartibda Kombinat tanlov komissiyasi kollegial organ rahbari – Boshqaruv raisining tijorat, xaridlar va mahalliy lashtirish bo'yicha o'rinbosari K.B.Ismayilov tomonidan imzolanadi.

Hisobot davrida kontragentlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalarini shartnomalarga kiritishni rad etish holatlari kuzatilmagan.

Shuningdek, 2025-yil davomida Kombinatning ish beruvchi sifatida xodimlar bilan tuzilgan barcha (100%) mehnat shartnomalariga ham Kombinat markaziy apparatidagi **Inson resurslari (HR) departamenti** (Shavkat I.Dusimbetov) tomonidan **barcha mehnat shartnomalariga ham korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilgan.**

Kombinatdagi Vakant ish o'rinlariga nomzodlarni tekshirish

"Olmaliq KMK" AJda hisobot davrida **1938 nafar yangi xodimlar** ishga qabul qilingan bo'lib, barcha nomzodlar 100% tekshiruvlardan o'tkazilgan.

Nomzodlarni tekshirish ishlari Boshqaruv raisining Xavfsizlik bo'yicha o'rinbosari, Kombinat markaziy apparati Maxfiy tartibot bo'limi hamda tarkibiy korxonalardagi xavfsizlik bo'yicha rahbar o'rinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

"Olmaliq KMK" AJning 2025-yil 19-martdagi 00596-son farmoyishi bilan **Kombinatning 40nafar**, 18-avgustdagi 1475-son farmoyishi bilan **33 nafar**, 28-avgustdagi 01599-son farmoyishlari bilan **33 nafar**, 9-oktabrdagi 1811-son farmoyishlari bilan **35 nafar**

jami Kombinatning, 141 nafar xodimlari uchun “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi” mutaxassislari tomonidan (ikki kunlik – jami 12 soatlik) **“Korrupsiyaga qarshi kurash va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish”** mavzusida o‘quv kurslari tashkil etildi.

O‘quv kursining mavzusi: **“Korrupsiyaga qarshi kurash va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish”**.

Kurs yakuni bilan imtihon va test sinovlari o‘tkazildi hamda kursda faol qatnashgan va bilim test va suhbat sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan **141 nafar Kombinat xodimlariga guvohnoma (sertifikat)lar topshirildi.**

“Olmaliq KMK”AJning 2025-yil 7-martdagi 00647-son xatiga asosan, Kombinatning **5 (besh) nafar rahbar xodimlari** BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi tashabbusi doirasida, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) hamkorligida, Markaziy Osiyo biznesning halolligi tarmog‘i (CABIN) tomonidan o‘tkazilgan barcha konsultatsiyalarda ham faol ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan 2025-yil 14-fevral kuni “Xalqaro standartlar asosida o‘tkaziladigan audit turlari”, “Masofaviy audit” axborot tizimidan foydalanish imkoniyatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tizimi, shuningdek, moliyaviy xatarlarni (kovenant xatarlarni) samarali boshqarish omillari mavzusida o‘tkazilgan o‘quv-amaliy seminarida “Olmaliq KMK”AJning **7 (yetti) nafar rahbar xodimlar** ishtirok etdilar.

2025 yil 20-21 avgust kunlari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish va “komplayens-nazorat” tizimi samaradorligini oshirish” mavzusida o‘quv seminarida “Olmaliq KMK”AJning **1 (bir) nafar rahbar xodimi** ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining tashabbusi asosida tashkil etilgan **ISO 37001:2025** xalqaro standarti talablari asosida tashkil etilgan o‘quv kursida “Olmaliq KMK”AJning **1 (bir) nafar xodimi** ishtirok etdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi PF-71-son Farmoniga (<https://lex.uz/docs/-7486412>) asosan “Olmaliq KMK”AJning **2 nafar muhandis-texnik xodimlari** **“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi”da** korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga qaratilgan maxsus chuqurlashtirilgan o‘quv kurslarida malakasi oshirildi.

“Olmaliq KMK”AJ Boshqaruv Raisining korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan xodimlar va biznes hamkorlarga yo‘llagan Murojaati, Kombinatning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasida davlat (lotin alifbosida) tilida, rus va ingliz tillarida joylashtirildi.

(<https://agmk.uz/en/vystupleniya/olmaliq-kmk-AJ-boshqaruv-raisi-abdulla-xursanovning-murojaati>) – ingliz tilida),

(<https://agmk.uz/oz/vystupleniya/olmaliq-kmk-AJ-boshqaruv-raisi-abdulla-xursanovning-murojaati>) – davlat tilida),

(<https://agmk.uz/ru/vystupleniya/olmaliq-kmk-AJ-boshqaruv-raisi-abdulla-xursanovning-murojaati>) - rus tilida).

Shuningdek, OKMKning rasmiy Telegram kanalida (https://t.me/ao_agmk/33865) ham joylashtirildi.

“Olmalik KMK”AJga ishga yangidan qabul qilingan xodimlarga Korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimi yuzasidan doimiy tarzda **“Welcome Training” dasturi** doirasida Kombinat O‘quv markazi tomonidan muntazam ravishda o‘quv treninglar o‘tkazilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, Kombinat mijozlari (biznes hamkorlari) hamda Kombinat xodimlarning fikrini o‘rganish maqsadida, “Olmalik KMK”AJning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida, shuningdek Telegram messendjeridagi kanalida anonim **“So‘rovnoma”** (<https://agmk.uz/oz/vote>) hamda (https://t.me/ao_agmk/34672) va (https://t.me/ao_agmk/34944) (https://t.me/ao_agmk/34994) (https://t.me/ao_agmk/35026) (<https://www.youtube.com/watch?v=IMo0myxyBtw>) joylashtirildi. Natijalar tahlil qilindi va Agentlikka E-antikor.uz platformasi orqali taqdim etildi.

Kombinat rasmiy Telegram kanali hamda boshqa ijtimoiy tarmoqlarda korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida “Olmalik KMK”AJga xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari to‘g‘risidagi e‘lonlar joylashtirilgan hamda muntazam elon-eslatmalar berib borilmoqda.

https://t.me/ao_agmk/34884

https://t.me/ao_agmk/35045

Xodimlarga aloqa kanallari va ular orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabarlar yuborish imkoniyati haqidagi eslatmalar muntazam yuborib turiladi (https://t.me/ao_agmk/40910).

Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

“Olmalik KMK”AJning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasi (<https://agmk.uz/ru/menu/helpline->) yoxud elektron pochta manzili orqali (stop.corruption@agmk.uz).

“Olmalik KMK”AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi <http://www.facebook.com/agmkofficial>) orqali.

“Olmalik KMK”AJning Ishonch telefon raqamlari orqali: (+998 71) 619-23-33; (+998 78) 141-93-33 (Ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali).

“Olmalik KMK”AJning telegram boti ([@agmk_bot](https://t.me/agmk_bot)) “Olmalik KMK”AJ rahbariyati yoxud Komplayens xizmatiga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilishlari mumkin.

“Olmalik KMK”AJ Komplayens xizmatining mas‘ul xodimlari bilan bog‘lanish uchun:

(+998 71) 619-51-16 yohud +998 93 500 01 19/ yoxud +998 93 182 24 22 (Komplayens xizmatining mas‘ul xodimlari).

(+998 78) 141-90-09 (Kommutator);

(+998 71) 619-51-68 (Ofis-menedjer xizmati – xatlar yuborish uchun).

“Olmalik KMK”AJning internet tarmog‘idagi rasmiy web sahifasi havolasi: www.agmk.uz

Telegram messenjerida – “AGMK-OKMK rasmiy kanali” - https://t.me/ao_agmk

Facebook messenjerida: www.facebook.com/agmkofficial

Youtube videoxostingida: www.youtube.com/c/AGMKuzAlmalik

Instagram messenjerida: www.instagram.com/agmkofficial/

Twitter mikroblogida: https://twitter.com/agmk_official

Monitoring va nazorat

Hisobot davrida, ya'niy 2025-yil davomida Komplayens xizmati ishtirokida **jami – 19 ta xizmat tekshiruvlari o'tkazildi.**

Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga nisbatan ko'rilgan ta'sir choralari

Hisobot davrida, Kombinat manfaatlariga yetkazilgan zarar miqdori – **1,121 mln** (bir milliard bir yuz yigirma bir million) so'm miqdordagi pul mablag'lari, aybdor shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda zarar miqdorini to'liq hajmda undirishga erishildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida monitoring tadbirlari doirasida samarasiz (maqsadsiz) ishlatilishi oldi olingan mablag'lar miqdori - **1,180 mln** (bir milliard bir yuz sakson million) so'mni tashkil qilgan va ushbu mablag'lar to'liq hajmda Kombinat balansiga qaytarilishi ta'minlandi.

IX. Xulosalar

Hisobot davrida, "Olmaliq KMK" AJ tizimida jami 84ta tarkibiy bo'linmalar mavjud.

Shundan, **Markaziy apparatda jami - 39ta bo'linmalar** (departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, ofis, kotibiyat, sektor, xizmatlar shaklida) bo'lib, **yana 46tasi** ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarkibiy korxonalar (kon va ruda boshqarmalari, trest, direksiya, zavod va fabrika va sexlar va boshqalar) hisoblanadi.

2025-yil 31-dekabr holatiga **Komplayens xizmatida 6ta nafar shtat birliklari** mavjud bo'lib, haqiqatda (amalda) **5 (besh) nafar xodimlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.**

2025-yilning 30-may sanasida, "Olmaliq KMK" AJning Komplayens xizmati boshlig'i lavozimi bo'sh ish o'rnini egallash uchun Talabgorlar o'rtasida so'nggi uchinchi bosqichga muvaffaqiyatli tarzda yetib kelgan nomzodlar o'rtasida **TEST hamda Suxbat shaklidagi sinovlar o'tkazildi** (https://t.me/ao_agmk/35100).

Ushbu vakant lavozim uchun o'tkazilgan ochiq va shaffof tanlovlarda, respublikamizdan jami 500dan ziyod Nomzod va Talabgorlar qatnashdilar hamda o'z imkoniyat va bilimlarini sinab ko'rdilar (<https://www.youtube.com/watch?v=MqjpyIZG2ZI>).

Sinovlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PQ-5177-son qarorining** 4-bandida belgilangan tartibda ya'ni "**ochiq tanlov asosida**" tashkil qilindi va sinov jarayonlarida **Agentlikning ma'sul xodimining nazorat tartibidagi ishtiroki ta'minlandi.**

Agentlikning 2025-yil 4-iyundagi №03-07/4115-son xatiga muvofiq, "Olmaliq KMK" AJning Komplayens xizmati boshlig'i lavozimiga – sinovlarda eng yuqori natijalarni qayd etgan nomzod – Sh.X.Jo'rayev nomzodi bir ovozdan tasdiqlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, sohada inson omilini qisqartirish, qonunchilikni takomillashtirish, xususan, raqamlashtirish bo'yicha "Olmaliq KMK" AJning qonunchilik taklif-tashabbuslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son Qaroriga muvofiq (qarorning uchinchi bandiga qarang-<https://lex.uz/ru/docs/5495533>), "2021-yil 1-oktyabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida **korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan edi.**

2025-yilning 5-mart sanasida, Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining kengaytirilgan majlisida muhtaram Prezidentimiz, o'z nutqlarida:

“Korrupsiyaning oldini olish, omillari bilan ishlash **uchun 117ta vazirlik va idoradagi “korrupsiyaga qarshi ichki nazorat”** (keyingi o‘rinlarda - KQINT) tuzilmalarida **1 ming 285 xodim** ishlamoqda” deb ta’kidlagan edilar. Prezidentimiz o‘z nutqida, KQINTlarning faoliyatini keskin tanqid qilgan edilar.

Ta’kidlash joizki, ayni vaqtda respublikada, 40 dan oshiq vazirlik va idoralarda, 14 ta Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarda, 30 dan ko‘proq ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ziyodni tashkil qiluvchi korxona va tashkilotlarda, shuningdek 20 dan ziyod tijorat banklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Biroq, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ulushi ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari hamda banklar o‘zining tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyatining maqsadi, funksiya, vazifa hamda vakolatlarining ko‘lami hamda tabiatiga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiladi.

Shunga ko‘ra, “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari”ning **institutsional va huquqiy asoslarini QONUN darajasidagi hujjatda mustahkamlash taklifi** kiritilmoqda.

Chunonchi,

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga,

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunga,

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunga,

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunga,

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmalari (Komplayens nazorat tuzilmalari – keyingi o‘rinlarda matnda – **KQINTlar deb yuritiladi**) to‘g‘risida alohida moddalar ko‘rinishida (**basharti, asoslantirilgan zarurat mavjud bo‘lsa, Qonun matniga alohida bo‘lim shaklida**) tegishli qo‘shimcha moddalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qonunchilik tajribasidagi analogiya sifatida, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunida (<https://lex.uz/ru/docs/2382411>) **“Ichki auditor xizmati”** (74-, 75-, 87- hamda 108-moddalari), **“Korporativ konsultant”** (75- va 110- moddalar) hamda Jamiyatning **“Taftish komissiya”si kabi boshqaruv organlariga bag‘ishlangan alohida modda va qoidalar mavjud.**

Ta’kidlash joizki, respublikadagi yirik aksiyadorlik jamiyatlarini transformatsiya qilish siyosati doirasida (2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son Farmonining 2-bandi, oltinchi xatboshiga qarang, (<https://lex.uz/ru/docs/5068826>), zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining majburiy elementi hisoblangan KQINTlarni, yuqorida nomlari zikr qilingan alohida va mustaqil boshqaruv organlarining huquqiy maqomida barcha aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari qatoriga/safiga qo‘shishni maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Buning uchun, KQINTlarning huquqiy maqomi, bo‘ysinuv va hisobdorlik tartibi, funksiya, vazifa hamda vakolatlari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, KQINT xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi eng muhim qoidalarni (moddalarni) **AJlar to‘g‘risidagi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonunlarda belgilash** maqsadga muvofiq hisoblanadi.

(Takliflarni ishlab chiqishning huquqiy asosi: 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmon bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 83-maqsadi, 257-bandi: <https://lex.uz/ru/docs/6396146>

hamda 2020-yil 27-oktyabrda PF-6096-son Farmonning 2-bandi 5 va 6 xatboshilari: <https://lex.uz/ru/docs/5068826>).

Bundan tashqari, o'tkazilgan dastlabki tahlillarga ko'ra, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga berilgan vakolat va huquqlar, ularga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarga mutanosib emas** (PF-71, PQ-147 va PQ-5177 <https://lex.uz/ru/docs/5495538> yoxud 3319-Nizomda - <https://lex.uz/ru/docs/5621185>).

Shunga ko'ra, KQINTlar zimmasiga amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan yuklatilgan vazifa hamda maqsadlar, shuningdek vakolatlar, bunday tuzilmalarga berilgan vakolatlar, huquqiy instrumentlar, bunday huquq va instrumentlarning yetarli ekanligi, mutanosib ekanligi, samaradorligi kabi ko'rsatkichlar kesimida **xalqaro standart ISO 37001:2016ning 5.3.2. hamda A.6.2. bandlarda belgilangan tavsiyalar asosida xorijiy va mahalliy ekspertlar tomonidan tanqidiy tahlil qilinishi lozim deb hisoblaymiz.**

Chunonchi, ISO 37001:2016 xalqaro standartining 5.3.2.-bandiga ko'ra, "Yuqori rahbariyat normativ-huquqiy muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha bo'linmani (KQINTi faoliyatini) tashkil qilishi, **KQINTga yetarli darajada vakolatlar berishi va majburiyatlar yuklashi lozim**"ligi belgilangan.

ISO 37001:2016 xalqaro standartining 5.3.2.-bandi oltinchi va yettinchi xatboshilarida, "Normativ-huquqiy muvofiqlikni ta'minlash tuzilmasi ya'ni, **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tegishli resurslar bilan ta'minlanishi, tegishli bilim hamda maqomga, vakolatlariga va mustaqillikka ega bo'lishi lozim**" deb belgilangan.

Normativ-huquqiy muvofiqlikni ta'minlash bo'linmasi (KQINTlar) pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimi bilan bog'liq masala va muammolarni tezkor hal qilish zarurati yuzaga kelgan hollarda boshqaruv organi (mavjud bo'lsa – Kuzatuv kengashi) va yuqori rahbariyatga (Boshqaruv/Ijro organi rahbariga) to'g'ridan-to'g'ri va tezkor kirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak".

"Olmaliq KMK" AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko'rsatkichlarni Kombinat Markaziy apparati hamda va tarkibiy korxonalar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ro'yhati Modulning 1.2.4.1.-bandiga biriktirildi.

"Olmaliq KMK" AJ
Komplayens xizmati boshlig'i

2026 yil 6-yanvar



Sh.X. Jo'rayev